

KURASHCHILARNI UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI: KURASHCHINING MAXSUS CHIDAMLILIGI

Solaydinov Elmurod Shorobidinovich
Andijon davlat universiteti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda, sportda trenirovka dasturlarini mazmunini optimallashtirish uchun har xil ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Jangovar sambo – aralash yakkakurash turlarini rivojlanib kelayotgan turi hisoblanadi, unda, musobaqaning qoidalarida texnik-taktik harakatlarni (TTH) va ularning kombinatsiyalarini zarbali va kurash texnikasini qo‘llash bilan katta xilma xilligini qo‘llashga ruxsat berilgan. Jangovar samboda bellashuvlardagi muvaffaqiyat sportchilarning texnik-taktik harakatlarini samaradorligi va natijaviyligi bilan ta’minlanadi. Yakka zarbali harakatlarga nisbatan kombinatsiyalangan TTH sportchini texnik-taktik harakatlari arsenalini hajmini, samaradorligi va natijaviyligini oshirishi aniqlangan, kombinatsiyalarni zarbali kurash texnikasini qo‘llash bilan egallash esa – bellashuvni muvaffaqiyatli olib borish uchun katta potensialga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: Sport, trenirovkasi, texnik, taktik, psixologik, amaliy, spetsifik, kuch.

Abstract: Currently, in sports, various indicators are used to optimize the content of training programs. Combat sambo is a developing type of mixed martial arts, in which the rules of the competition allow the use of a large variety of technical-tactical actions (TTH) and their combinations with the use of striking and wrestling techniques. Success in combat sambo competitions is ensured by the effectiveness and efficiency of the technical and tactical actions of the athletes. Compared to single-strike movements, combined TTH has been found to increase the size, efficiency and effectiveness of the athlete's arsenal of technical-tactical movements, and mastering combinations with the use of striking fighting techniques creates a great potential for successful competition.

Key words: Sport, training, technical, tactical, psychological, practical, specific, strength.

Аннотация: В настоящее время в спорте для оптимизации содержания тренировочных программ используются различные показатели. Боевое самбо — развивающийся вид смешанных единоборств, в котором правила соревнований допускают применение большого разнообразия технико-тактических действий (ТТД) и их комбинаций с применением ударных и борцовских приемов. Успех в соревнованиях по боевому самбо обеспечивается эффективностью и оперативностью технико-тактических действий спортсменов. Установлено, что по сравнению с одноударными движениями комбинированные ТТХ увеличивают размер, эффективность и результативность арсенала технико-тактических движений спортсмена, а освоение комбинаций с применением ударных приемов борьбы создает большой потенциал для успешных соревнований.

Ключевые слова: Спорт, подготовка, техническая, тактическая, психологическая, практическая, специфическая, силовая.

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida 1950-1960 yillardan boshlab, «psixofizik sifatlar» atamasi o‘rniga «jismoniy sifatlar» atamasi qo‘llanilmoqda. «Jismoniy sifatlar» tushunchasini puxta

ishlab chiqilishi ilmiy ishlarda yoritilgan, ushbu atamani odamning harakat imkoniyatlarini alohida tomonlari sifatida o‘lchanadigan fiziologik va biomexanik usullar sifatida ko‘rib chiqilgan. Asosiy jismoniy sifatlarga tezkorlik, kuch, chidamlilik, epchillik, egiluvchanlik hamda muvozanatni his qilish kabilar kiradi.

Sport trenirovkasi tizimi sportchini tayyorgarligini asosiy komponenti hisoblanadi. U trenirovka samarasini oshiruvchi musobaqa va qo‘shimcha omillar bilan bir qatorda sport natijalarini zaruriy o‘shirishni ta‘minlaydi. Sport trenirovkasi jismoniy tayyorgarlikni hamda texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikni amaliy bo‘limlarini qamrab oladi. Malakali sportchilar uchun MJTning ahamiyati alohida yuqoridir. Sport natijasi kuch qobiliyatlarini har xil turlarini namoyon qilinishi bilan belgilangan holatlarda, MJTning asosiy bo‘g‘inlaridan biri sifatida – maxsus kuch tayyorgarligi shakllanadi. U, sportning zamonaviy nazariyasida trenirovka jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchi uchun spesifik kuch qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutganligi tufayli «kuch qobiliyatlari» atamasini o‘ziga aniqlashtirishlar kiritilishi kerak. Ushbu atamani bir nechta belgilanishlari mavjud.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchilarni kuch qobiliyatlarini bevosita namoyon qilinishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, nafaqat atletik sport turlarida, balki sportni ko‘pchilik boshqa turlarida ham, xususan, sportning siklik turlariga mansub bo‘lgan o‘rta masofalarga yugurishda va tosh ko‘tarish sportida hamda erkin kurash tipik vakillari hisoblangan sport yakkakurashlarida ham birinchi darajali ahamiyatga ega. Maxsus kuch yo‘nalganligiga ega bo‘lgan mashqlar qaysi yo‘nalishda amalga oshirilishi bog‘liq bo‘lgan musobaqa mashqlarining o‘ziga xos xususiyatlari, mashqlarni stereotipligi belgilari bo‘yicha tasnifida keltirilgan. Harakatlarni tuzish darajalari to‘g‘risidagi tasavvurlar va sportchilarning harakat amallarini tahlil qilish, sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlanishini mavjud tamoyillarini to‘ldiruvchi va konkretlashtiruvchi maxsus kuch yo‘nalishidagi mashqlarning biomexanik strukturasi optimallashtirish tamoyillarini shakllantirish imkonini beradi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirish orqali, konsentratsiyalangan ko‘rinishda o‘zining predmetli sohasini aks etadigan «psixofizik sifatlar» tushunchasini – odamning jismoniy va ma‘naviy (psixik) imkoniyatlarini rivojlanish deb hisoblash zarur. Sport yakkakurashlarida kurashchilar trenirovkasini varaitiv vositalarini qo‘llash bilan sport tayyorgarligini psixologik jihatlarga muhim ahamiyat qaratiladi. Tajriba guruhidagi trenirovkalar mualliflar tomonidan mushak faoliyatini energiya bilan ta‘minlanishini tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan sport tayyorgarligi uslubiyatini amalga oshirish asosida o‘tkazilgan. Nazorat guruhi kurashchilari sport tayyorgarligini an‘anaviy sxemasi bo‘yicha shug‘ullanishgan. Ikkala guruhdagi kurashchilarni psixologik tayyorgarligi ko‘rsatkichlarini barchasida o‘shirish sodir bo‘lgan. Masalan, tajriba guruhida maqsadga erishishga motivatsiya – 29,17%ga; tavakkal qilishga tayyorlik – 45,05%; muvaffaqiyatsizlikdan qochishga motivatsiya – 23,98%; psixik tayyorgarlik holati – 33,43%; shaxsiy havotirlik – 17,23%; situativ havotirlik – 15,07%ga o‘sgan, ko‘rsatkichlardagi barcha o‘zgarishlar ahamiyatlilik darajasi bo‘yicha ishonchli hisoblanadi ($r < 0,05$). Nazorat guruhida ham tadqiq qilingan ko‘rsatkichlarda o‘shirish sodir bo‘lgan: mos ravishda – 2,58%; 6,80%; 7,87%; 8,94%; 7,30%; 5,51%ga, lekin natijalardagi ushbu o‘zgarishlarning ahamiyatlilik darajasi ishonchli hisoblanmaydi ($r < 0,05$). Bunda, shuni aytish joizki, tadqiq qilish davrida, tajriba guruhi kurashchilarida situativ va shaxsiy havotirlik, tavakkalga tayyorlik, muvaffaqiyatsizlikdan qochishga motivatsiya ko‘rsatkichlari optimal darajaga qadar pasaygan. Bugungi kunda, dzyudo bilan 7-8 yoshdan

shug‘ullanishni boshlagan o‘smir dzyudochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yetarlicha past darajasi aniqlangan. Amaliyotni ko‘rsatishicha, yangi shug‘ullanadiganlarning ko‘pchiligi umumiy jismoniy tayyorgarligini oldindan past darajasiga ega bo‘lishgan. Buning barchasi, o‘smir dzyudochilarni umumiy jismoniy tayyorgarligini dastlabki bosqichlarda, ayniqsa, trenirovka jarayonining birinchi yillarida oshirishni samarali uslubiyatlarini ishlab chiqish zarurati to‘g‘risida dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda, sportda trenirovka dasturlarini mazmunini optimallashtirish uchun har xil ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Jangovar sambo – aralash yakkakurash turlarini rivojlanib kelayotgan turi hisoblaandi, unda, musobaqaning qoidalarida texnik-taktik harakatlarni (TTH) va ularning kombinatsiyalarini zarbali va kurash texnikasini qo‘llash bilan katta xilma xilligini qo‘llashga ruxsat berilgan. Jangovar samboda bellashuvlardagi muvaffaqiyat sportchilarning texnik-taktik harakatlarini samaradorligi va natijaviyligi bilan ta‘minlanadi. Yakka zarbali harakatlarga nisbatan kombinatsiyalangan TTH sportchini texnik-taktik harakatlari arsenalini hajmini, samaradorligi va natijaviyligini oshirishi aniqlangan, kombinatsiyalarni zarbali kurash texnikasini qo‘llash bilan egallash esa – bellashuvni muvaffaqiyatli olib borish uchun katta potensialga zamin yaratadi. Olingan ma‘lumotlar, jangovar sambo bo‘yicha yuqori malakali sportchilarni trenirovka rejalarini va o‘quv-trenirovka jarayonini dasturlarini ishlab chiqish paytida ishonchli axborot bo‘lib xizmat qilishi mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Денисенко А.Н.- Физическая и техническая подготовка борцов на основе интеграции тренировочных средств вольной и национальной борьбы хуреш //дисс. канд. пед. наук, 13.00.04 соиск. уч. ст. канд. пед. наук, СПб, 2018 -173с.
2. Еремин, И.Б. Билатеральное регулирование технико-тактических действий борцов с учетом индивидуальных особенностей: автореф.дис...канд. пед. наук 13.00.04 /Еремин Игорь Борисович; С.-Петербург. гос. акад. физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта.- Санкт-Петербург, 2003.- стр. 23-24.
3. Крикуха Ю.Ю.,Кузнецов А. С /Повышение эффективности технико-тактической подготовки борцов 16-17 лет греко-римского стиля на этапе спортивного совершенствования //Теория и практика физической культуры -2009 №3. - стр. 90-91.
4. Курамшин Ю. Ф. Проблема «Качеств» в теории физической культуры: современное состояние и пути решения // Теория и практика физ.культуры. -2021. - №10.- стр.14-16.
5. Мирзакулов Ш.А. Белбоғли кураш назарияси ва услублари //Ўқув қўлланма Т.: -2014. - 216 б.
6. Болотин Э., Зюкин А. В и др. Анализ технико-тактических действий высококвалифицированных спортсменов в соревновательных поединках по боевому самбо // Теория и практика физ.культуры. 2021. -№6.- стр.12-14.